Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
Grafik organayzer tushunchasining mohiyati va uning turlari	1315
Nabijanov Yusufjon Inomiddin o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy metodik asoslari.....	1319
Xidirova Gavhar Babaqul qizi	
Pedagogik nizo va stress holatlarida o'qituvchining o'zini boshqarish malakasini shakllantirish	1322
Razzakova Dilnoza Akramovna	
Kompyuter grafikasi darslarida loyihaviy yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari.....	1326
Nazarova Shahnoza Shokirovna	
Kichik yoshdagi o'quvchilarda universal ta'limiy faoliyatlarni shakllantirish nazariyasi.....	1330
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
ART pedagogikaning tarixi va kelib chiqishi	1335
M. K. Abulova	
Dasturiy-didaktik ta'minot asosida talabalarining kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	1338
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	
Bo'lajak pedagoglarning fasilitatsion kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish mexanizmi	1342
Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi	
Mashqalali o'qitiladigan qaraqalpaq adbiyoti saba'ida qollanilgan abjadda	1346
Jaksimova Urziya Jumabaevna	
Forming Primary-School Teachers' Creative Pedagogical Culture Through Professional Reflection.....	1349
Komiljonova Dilyoraxon	
Professional ta'limda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari (fizika ta'limi misolida).....	1352
Kosimova Yanglish Baxtiyorovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ertak terapiyasidan foydalanish	1355
Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarni ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari	1358
Nazarova Zarrina Allaberdiyevna	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari asosida pedagogik loyihalashtirish	1361
Polvonova Yulduzxon Saparboyevna	
SMART texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahoratini shakllantirish modeli	1364
Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna	
Talabalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari.....	1368
Rustamova Barno Abduxalilovna	



Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga chet tili o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususiyatlari.....	1371
Sadirova Dinara Sadikovna	
The Effectiveness of Project-Based Collaborative Learning in Improving English Speaking Skills of High School Students.....	1378
Salikhova N. I., Izzetullah Zeki	
Jadidlarning pedagogik merosi va zamonaviy ta'limda akmeologik yondashuv integratsiyasi.....	1383
Shodiyeva Nasiba Rustamovna	
Serebral falajli bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish.....	1387
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna	
Diplomatik hujjatlar bilan ishlashning pedagogik modeli	1391
Sobirova Shahlo Jamolovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	1394
Suyarov Adham Begmuradovich	
Globalization and The Changing Role of English Teachers in Non-Native Contexts	1399
Toirova Shohida Kamolovna	
The Role of the Literary Heritage of the Timurid Era in Shaping National Identity and Spiritual Values	1402
Tokhliyeva Shafolat Rustam kizi	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning mavjud ilmiy-nazariy tavsiflari	1405
Toshboyeva Saida	
Talabalarining mustaqil ish loyihasini ishlash jarayonidagi ruhiy holatlari	1408
Uzaqbaeva Venera Abatbaevna, Kubeysinova Nilufar Maxmutovna	
O'qituvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni va mexanizmlari	1412
Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish: metod va yondashuvlar	1416
Ziyayev Adxamjon	
Developing Students' Speech Skills Based on Multimodal Approach in English Teaching	1419
Bultakova Mokhinur Shuhratboy qizi	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llari	1422
G. M. Adizova	
A Comparative Study of Linguistic and Cultural Expression in Uzbek and English Literary Discourse.....	1426
Ismoilova Shakhnoza Ilkhomovna	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1429
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik mahoratni egallash jarayonini takomillashtirish.....	1433
Jabborova Marifat Qodiraliyevna	
Umumta'lim maktablarida ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari	1436
Kumush Xamrakulova	
Ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning tarixiy asoslarini o'rganishda xorijiy tajribalar.....	1440
Mirxamidova Maftunaxon Xusanboy qizi	
O'yin nomlarining lingvomadaniy ahamiyati	1444
Matmusayeva Muhayyo Azamovna	
Umumta'lim maktablarida elektroliz jarayonini o'qitish metodikasi.....	1446
O'rinova Ozodaxon O'ljayevna, Toshtemirov Asadbek	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni	1450
Oygul Ashurova Anvarjonovna	
Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar majburiyat yuklatilgan shaxslar emas.....	1453
Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Toshmurodova Muxabbat Nazaraliyevna	
Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarni ota-onalari bilan hamkorlikda ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligini oshirish.....	1460
Salixova Gulnoza Maxmudovna	
Talabalarining o'quv faoliyatini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslari	1463
Umarov Nurbek Irkinovich	
Maxsus maktablarda eshitishida nuqsoni bor bolalar nutqini interfaol metodlar orqali rivojlantirish	1466
Teshaboyeva Feruza Raximovna	

Media to'garaklarini gospital ta'limda tashkil etishga oid xorijiy tajribalar tahlili.....	1469
Abduraximova Nozimaxon Baxadirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi.....	1475
Abduraxmonova Noila Nasim qizi	
Raqamli transformatsiyaning mohiyati, xususiyatlari va sotsiomadaniy jarayonlarga ta'siri.....	1479
Bakirov Otabek Bo'ranovich	
Ingliz tilini o'qitishda mediatexnologiya vositalarini tadbiq qilishning optimal shakl va usullari.....	1484
Eshboyev Shoira Azamatovna	
Singapur, Angliya, Rossiya va O'zbekiston o'quv dasturlarida o'qish savodxonligi yondashuvlari	1488
Eshonkulova Hilola Rajab qizi	
O'quv mashg'ulotlarini tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	1492
Fayziyeva Maftuna Ilxomovna	
Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida bolalarni bilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	1496
Jaloldinova Madinaxon Xojakanovna	
Oliy harbiy ta'lim tizimida kursantlarning psixologik moslashuvi va shaxsiy shakllanishining psixologik omillari.....	1499
Kushbayev Sardor Kenjabayevich	
Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirishning samarali usullari	1502
Lola Ibragimova	
Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish modeli	1506
Muqimova Zulxumor Ziyataliyevna	
4K modeli asosida darslarni tashkil etish.....	1511
Nazarova Mavluda Uktamovna	
Ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishda pedagogik targ'ibotning o'rni.....	1514
Ochilova Dilrabo Ibragimovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish ..	1517
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Muhandislik ta'limida texnologik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	1520
Turayeva Nargiza Nasrullayevna	
Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o'qitishda zamonaviy metodlarning o'rni va ahamiyati.....	1524
Ulug'murodova Nargiza Norovna	
Experimental Justification and Evaluation of the Effectiveness of a Gymnastics Exercise Complex Based on a Differential Approach In The Prevention of Metabolic Syndrome and Overweight In Women of Reproductive Age.....	1528
Urazova Muborak Yuldosheva	
PIRLS xalqaro tadqiqotida o'qituvchi omilining o'quvchilar natijasiga ta'siri.....	1532
Usmonova Yulduz Abdusaid qizi	
Когнитивные стили обучающихся как ключевой нейропсихологический компонент	1537
Эгамбердиева Фарида Октамовна	
Markaziy Osiyoda dizaynning rivojlanish istiqbollari.....	1540
Abdijalilov Abdivohid Abdihalimovich	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik imkoniyatlar	1544
Yusupova Shaxnoza Qodirjonovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna	
Oliy ta'lim sifatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri	1549
Alimova Mavluda Shuxratbekovna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasi (filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi misolida)	1553
Axadova Shaxnoza Odiljonovna	
Algorithmic Filtering and Social Polarization	1556
Azizova Shodiya Utkur kizi	
Malaka oshirish jarayonida pedagoglarning huquqiy madaniyatni rivojlantirishmetodlari	1560
Boymirzayeva Raximaxon Xoshimjonovna	



Globalashuv sharoitida oilaning an'anaviy qadriyatlari va zamonaviy tendensiyalari nisbati	1565
Ergashova Guljahon Akmal qizi	
Turli yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda (5–6 va 6–7 yosh) kognitiv rivojlanishni tashkil etishda o'yin turlarini tanlashning pedagogik asoslari	1569
Fozilova Odina Nabiyeвна	
Tibbiy ta'lim talabalarining amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning nazariy asoslari.....	1572
Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1576
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
"Temurbeklar maktabi" o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirishning samaradorlik darajasi.....	1580
Jumayev Javlonbek Abduqahhor o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini qo'shiqlar orqali shakllantirishning psixolingvistik masalalari.....	1585
Karimova Dilyora Raximjon qizi	
Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni pedagogik loyihalashtirishda reflektiv yondashuvi turlari	1589
Nurmanov Alisher Shaymardonovich	
Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qtuvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillastirish.....	1591
Sh. A. Abdullayev	
Tibbiy ta'limda talabalar kognitiv tafakkurini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy-metodik asoslari.....	1594
Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Supichakov Xondamir Xamidovich, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li	
O'quvchilarda ingliz tilidagi lingvistik kompetensiyani shakllantirishda tizimli yondashuvning roli.....	1598
Tojiyeva Anora Baxtiyorovna	
Inklyuziv ta'lim tushunchasi va rivojlanish bosqichlari	1602
Toshboltayeva Malohatoy Valijon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	1605
Turobova Nilufar Umedullayevna	
Bo'lajak pedagoglarda fasilitatorlik sifatlarini rivojlantirishning samaradorligi.....	1610
Xamidova Sabrina Abduvahob qizi	
Tibbiy ta'limda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1615
Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini o'stirishda kompyuter o'yinlarining o'rni	1620
Yalgasheva Zilola Haziratkul qizi	
O'quvchilarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish	1624
Yuvashov Sherzod Ulmasovich	
Формирование лингвокультурной компетенции студентов-филологов в процессе изучения русского языка как неродного	1628
Имомалиев Шукурулло Шухратович	
"Time Management" tushunchasi va oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlik	1631
Sirojova Nafisa Isomiddin qizi	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish: mazmuni va turlari ..	1635
Yusupova Shahnosa Qodirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmonovna	
Birlamchi sogliqni saqlash tizimida oilaviy shifokorni tayyorlashda an'anaviy institutsional yondashuv (adabiyotlar sharhi).....	1639
Abduvaxobova Nozima Raxmanovna, Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna	
Oila shifokorining tibbiy faoliyatining kommunikativ asoslarini rivojlantirish	1643
Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish (adabiyotlar sharhi).....	1652
Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna, Abduvaxobova Nozima Rahmonovna	
Dyuzdo sportining xalqaro maydondagi rivojlanish istiqbollari va o'zbekiston tajribasi	1657
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
Challenges in Organizing Scientific Research Activities of Future Educators	1666
Abdullaeva Ozoda Odiljon kizi	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi	1670
Abduvaxobova Nodira Abdusalam qizi	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalash ustuvor masala sifatida	1674
<i>Abirova Umida Nazarovna</i>	
Reflektiv yondashuv asosida xorijiy til ta'limida metakognitiv kompetensiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	1678
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
O'zbek folklor raqs san'ati motivlari asosida talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1683
<i>Asror Allayarov</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar nutq madaniyatiga ta'siri (global tajribalar va O'zbekiston misolida tahlil) ...	1687
<i>Azimjonova Shahnoza Dilshodbek qizi, Xoldarov Bexruzbek Mansurbek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda dizartriyaning namoyon bo'lish darajalari	1691
<i>Berdibekova Zilola Sherzod qizi</i>	
Sotsial-pedagogik tamoyillar asosida talabalarni axborot addiksiyasidan himoyalash nazariyasi	1696
<i>Djumayeva Xulkarxon Muhammadjonovna</i>	
O'quvchilarning STEM fanlariga qiziqishini oshirish uchun samarali o'qitish metodlari.....	1700
<i>Eranova Aziza Axmamat qizi, Djumayev Axmamat Shermamatovich, Shodiyeva Nazira Qudratovna</i>	
Dizartriya bolalarda nutq va harakat jarayonlarini o'rganish va neyropsixologik yondashuv asosida korreksiyalash	1705
<i>Gapurova Dilnoza Tajibayevna, Odilova Sevara Bahriddin qizi</i>	
Duduqlanuvchi bolalarda nafas funksiyasi va nutqiy nafasni rivojlantirish	1708
<i>Isamova Gulchexrabonu Marvar qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda informatsion dunyoqarashni takomillashtirish metodikasi	1713
<i>Jumayev Umidjon G'ofir o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda san'at asarlarini idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	1718
<i>Kadirova Zarina</i>	
Abdulla Avloniy asarlarini o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalari va lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari	1721
<i>Karaxodjayeva Maxfuza Xamidullaevna</i>	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorni psixokorreksiyalash dasturining samaradorligi tahlili	1726
<i>M. I. Kushanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi yengil dizartriya bolalar lug'at boyligini innovatseon texnologiyalar vositasida rivojlantirish	1731
<i>Mamatova Aziza Bo'riboyevna, Xayrulloeva Marjona Tuychi qizi</i>	
Pedagogik ta'lim sohasida ta'lim sifatini takomillashtirish masalalari	1734
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Komilova Ziroat Murodjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda fanlararo integratsiyaning nazariy-konseptual asoslari	1737
<i>Mustafokulova Durdona</i>	
Baqtriya va Marg'iyo muhr va tumorlarida ifodalangan tasvirlarning tasniflanishi	1740
<i>Norxamidova Muattar Zavqiddin qizi</i>	
15-16 yoshli kurashchilarni mashg'ulot yuklamalarini samarali rejalashtirish.....	1745
<i>O. E. Toshmurodov, S. E. Shomurodov</i>	
Pedagogika sohasiga oid maktablarda ingliz tili fanini o'qitish usullari.....	1753
<i>Ochilova Laylo Rajabovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional-ir0daviy sifatlarini tarkib toptirishda xorij tajribasi	1757
<i>Quldosheva Shahlo Ibragim qizi</i>	
Shaxsda emotsional zo'riqishni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari	1763
<i>Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna</i>	
O'smir qizlarda ma'naviy dunyoqarashining shakllanganligini belgilaydigan mezonlar.....	1766
<i>Rajapov Vahobjon To'rajanovich</i>	
Frazeologizmlarning uslubiy tasnifini belgilash masalasi	1770
<i>Rashidova Umida Mansurovna</i>	
Yosh kurashchilarning chidamkorligini rivojlantirish muammolari.....	1774
<i>S. E. Shomurodov</i>	
Boshlang'ich ta'limda millatlararo muloqot ko'nikmalarini axloqiy kontentlar asosida shakllantirishda pedagogik texnologiyalar.....	1779
<i>Sanakulova Sarviniso Xamrakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida refleksiv ta'lim muhitini yaratish uchun pedagogik sharoitlar va vositalar	1783
<i>Shukirullayeva Sarbinaz Alliyar qizi</i>	



Gender farqlarni hisobga olgan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonida maktab o'quvchilarining shaxsida axloqiy qarashlarini shakllantirish.....	1787
Umirova Gulnoza Zakirbayevna	
Xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlari	1790
Usmonxodjayeva Moxiraxon Abdumalikxodjayevna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida badiiy va estetik tafakkur orqali ta'lim berish ko'nikmasini rivojlantirish.....	1797
Vaxabova Gulshan Vafoqul qizi	
Yoshlar estetik madaniyatiga ma'naviy-mafkuraviy yondashuv.....	1801
Xalilova Charosxon Omonboy qizi	
Духовные основы педагогического мастерства в трудах русских и узбекских педагогов-гуманистов	1805
Костишина К., Рустам-Валиева Г., Рахимова М., Утегенова Г.	
maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini inklyuziv faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	1811
Umarova Zuxra Madyrbekovna	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	1814
Sheraliyeva Guzal Elibayevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik usullari	1818
Mamasoliyeva Shirinoy Sirojiddin qizi	
Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda "Debat" va "Aqliy hujum" texnologiyalarining lingvopedagogik samaradorligi.....	1822
Nafasova Yulduz Shuxratovna	
Fizika darslarida muammoli o'qitish texnologiyasi orqali o'quvchilarda ichki motivatsiyani shakllantirish ...	1825
A. B. Kamalov, I. Jumaniyazova	
Zamonaviy multimedia texnologiyalari va uning ta'lim jarayonidagi o'rni	1829
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Qosimova Mohira Botirali qizi	
Цели и задачи когнитивной педагогики.....	1832
Инагамова Нодира Абдусаматовна	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	1835
Tengelova Dilfuza Urazali qizi	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi.....	1839
Abduvaxobova Nozima Raxmonovna, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna	
Learning English With Sign Language in Secondary School (Improving Communication Skills).....	1849
Nabiyeva Nodira Rustamjon qizi	
Tarixiy romanlarda milliy ruh ifodasi: Shahodat Isaxonova ijodida folklor elementlari	1854
Matmusayeva Nadira Mamirovna	
Boshlang'ich sinf darslarida kompetensiyaning ahamiyati	1858
Saidnazarova Tulganoy Maxmudovna	
Tarbiyaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarning ma'naviy tafakkurini rivojlantirish usullari	1861
Quvondiqova Dildora Komiljonovna	
Sog'lom turmush tarzini yaratishda jismoniy tarbiya va ommaviy sportning o'rni.....	1866
Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
Bolalikdagi muomala – kelajakdagi insoniyat.....	1869
Nasirova Z. M., Inogamova Sakina	
Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xosligi	1872
Boyitova Anorxol Gulmurodovna	
Kreativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tizimli fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish mexanizmi	1877
Illovatdinova Dilbar Azat qizi	
Talabalarning abstrakt fikrlashini rivojlantirishning germeneytik asoslari.....	1882
Abdullayeva Nafisa Anvarovna, Azizova Rayyona Rustambek qizi	
Innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentlikni rivojlantirish modeli va amaliyoti	1885
Kandaxarov Mirjalol Abdumurot o'g'li	

XORIJIY TIL O'QITISH METODIKASINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Usmonxodjayeva Moxiraxon Abdumalikxodjayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Nemis tili kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi, shakllanish bosqichlari hamda rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekiston ta'lim tizimida uch til – ona tili, ikkinchi til va xorijiy tilni o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Professor J. Jalolovning ilmiy qarashlari asosida “chet til” va “xorijiy til” terminlarining qo'llanishidagi farqlar izohlangan. Shuningdek, xorijiy til o'qitish metodikasida qo'llanilgan asosiy metodlar – tarjima, tarjimasiz, aralash va qiyosiy yondashuvlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Maqolada xorijiy tilni o'qitishda o'qituvchining kasbiy mahorati, metodik va didaktik tayyorgarligining ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: xorijiy til, ikkinchi til, o'qitish metodikasi, tarixiy genezis, metodlar, tarjima usuli, aralash metod, qiyosiy yondashuv.

Abstract: This article analyzes the historical genesis, stages of formation, and development directions of foreign language teaching methodology. The study scientifically highlights the specific features of teaching three languages – native language, second language, and foreign language – in the education system of Uzbekistan since the second half of the 20th century. Based on the scientific views of Professor J. Jalolov, the differences in the use of the terms “foreign language” and “second language” are explained. Furthermore, the article reveals the essence of the main methods used in foreign language teaching methodology – translation, non-translation, mixed, and comparative approaches. Special emphasis is placed on the importance of the teacher's professional skills, methodological preparation, and didactic training in teaching a foreign language.

Key words: foreign language, second language, teaching methodology, historical genesis, methods, translation method, mixed method, comparative approach.

Аннотация: В данной статье анализируются исторический генезис, этапы становления и направления развития методики преподавания иностранных языков. В исследовании с научной точки зрения освещаются особенности процесса обучения трём языкам – родному, второму и иностранному – в системе образования Узбекистана со второй половины XX века. На основе научных взглядов профессора Дж. Джалалова объясняются различия в употреблении терминов “иностраннный язык” и “второй язык”. Также раскрывается сущность основных методов, применяемых в методике преподавания иностранных языков – переводного, беспереводного, смешанного и сопоставительного подходов. В статье подчёркивается значимость профессионального мастерства преподавателя, его методической и дидактической подготовки при обучении иностранному языку.

Ключевые слова: иностранный язык, второй язык, методика преподавания, исторический генезис, методы, переводной метод, смешанный метод, сопоставительный подход.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish masalasi kishilik jamiyatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Til – insoniyat tafakkuri, madaniyati va millatlararo muloqotning eng muhim vositasi sifatida shaxsning intellektual salohiyatini shakllantiradi hamda jamiyat taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, xorijiy tilni mukammal o'rganish nafaqat shaxsning ma'naviy rivojiga, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuziga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “har bir fuqaro kamida uch tilni mukammal bilishi kerak” degan g'oya yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularning xorijiy tajribani o'rganish salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu ma'noda, chet til o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, uning tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish bugungi kun ta'lim jarayoni uchun katta ahamiyatga ega.



Til o'qitish metodikasining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, unda tarjima, tarjimasiz, aralash va qiyosiy metodlarning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lgan. Xususan, professor J. Jalolov asarlarida uch til – ona tili, ikkinchi til va chet tilni o'rganish jarayonining nazariy asoslari chuqur tahlil qilingan. Olim tomonidan ilgari surilgan “chet til” va “xorijiy til” terminlarining farqli jihatlari, ularning o'qitish jarayonidagi o'rni va mohiyati bugungi metodik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Mazkur maqolada xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi, shakllanish bosqichlari, metodlar tizimi hamda ularning bugungi ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari xorijiy til o'qitish jarayonini takomillashtirish, zamonaviy metodlarni tanlash va ularni amaliyotga joriy etishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J. Jalolov ^[4] mamlakatimizda o'quvchi va talabalar odatda uch tilni – ona tili, ikkinchi til va chet tilni o'rganishayotganiga alohida e'tibor qaratib, o'z tadqiqotlarida “chet til” terminidan foydalanishni odat qilganligini olim tomonidan chop etilgan adabiyotlardan ayon bo'ladi. “Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi. Chet til – bu xorijiy mamlakat tili. Ular ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi”. Bu esa o'qituvchidan yuqori kasbiy mahoratni talab etishi bilan birga, uni doimo o'z ustida ishlashini, metodik-didaktik bilimlarini muntazam oshirib borishini talab etadi.

Shuningdek, J. Jalolovning chet tilni o'qitish metodikasining turlari haqida chuqur fikrlari yuritiladi ^[5]. V. Vietorning fikrlari grammatikani o'qitishdan qochish kerakligiga ishora qiladi [8]. Tilni imkoni boricha ko'proq optik ko'rgazmalilik bilan bog'lashni maqsad qiladigan audiovizual kurs deganda, xorijiy til ta'limining boshlang'ich bosqichida qo'llaniladigan Peter Guberina tomonidan asos solingan usullar nazarda tutiladi ^[1]. O'. Hoshimov va I. Yoqubov ingliz tili darslarining maqsad va vazifalarini, til o'rganish bosqichlarini, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali metodlarni taklif etadi ^[2]. W. H. Petersen xorijiy tillarni o'qitish metodlari, yondashuvlari va didaktik atamalarini qisqa, aniq va tizimli tarzda tushuntirib beruvchi metodik ensiklopediyasida metodikaning tarixiy genezisiga alohida fikr bildirgan ^[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlarini yoritishda ilmiy manbalarni tahlil qilish, mavjud metodlarni solishtirish hamda ularning o'quv jarayonidagi qo'llanish xususiyatlarini o'rganish metodlaridan foydalanildi. J. Jalolov, V. Vietor, P. Guberina, O'. Hoshimov, I. Yoqubov va W. H. Petersen kabi olimlarning qarashlari qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqildi. Shuningdek, metodik adabiyotlarni kontent-tahlil qilish orqali xorijiy til o'qitish jarayonida qo'llanilgan tarjima, tarjimasiz, aralash va qiyosiy metodlarning mohiyati ochib berildi. Tadqiqotda ilmiy manbalardan foydalanish orqali xorijiy til o'qitish metodikasining nazariy asoslari hamda uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz o'z tadqiqot ishimizda yuqoridagi kabi “chet til” termini bilan bir qatorda, hozirgi kun pedagogika va metodikasida tobora kengroq qo'llanilayotgan “xorijiy til” terminidan foydalanamiz.

Xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish tadriji yoritilgan adabiyotlarda metodlar tarjima, tarjimasiz, aralash va qiyosiy kabi turlarga ajratilganligini guvohi bo'lamiz. J. Jalolov ularni quyidagi turlarga ajratadi va har bir metod turi tarafdorlariga batafsil to'xtalib o'tiladi ^[3].

1-jadval: Chet til o'qitish metodlari tarixi (J.Jalolov)

№	Metod turlari	Namoyondalari
1	Tarjima metodi -grammatika-tarjima metod -matn-tarjima metod	G.Ollendorf J.J.Jakoto
2	Tarjimasiz metod	tabiiy metod namoyandalari: M.Berlis, F.Guen, M.Valter, H.Suit. to'g'ri metod namoyandalari: H.Palmer, Ch.Friz, R.Lado, G.Lozanov, M.Uest.
3	Aralash metodlar	K.Flagstad, E.Otto, F.Aronshteyn, P.Xegboldt, F.Klosse, A.Bolen, B.Belyayen.
4	Qiyosiy metod	L.Shcherba, K.Ganshina, I.Gruzinskaya, A.Lyubarskaya, R.Rozenberg, M.Svetkova.




Sohaga oid adabiyotlar tahlilidan ayon bo'ladiki, milliy tadqiqotlarimizda xorijiy til o'qitish metodlari tarixi muayyan aspektlarda o'rganilgan bo'lib, aynan nemis tilini chet til sifatida o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish tadriji tadqiqot predmeti sifatida alohida e'tibor qaratilmagan. Bu esa bizning oldimizga mazkur bo'shliqni to'ldirish vazifasini qo'yadi.

Tarixan XIX asrda Yevropa gimnaziyalarida fransuz va ingliz kabi tillarni o'rganishga ehtiyoj oshib bordi. Grek, lotin kabi "qadimiy" tillarni o'rganishda asoslangan grammatika-tarjima metodi (GTM) ushbu davrga kelib ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan edi. Aslida "o'lik" tillarni o'rganishda urf bo'lgan mazkur metodning zamonaviy tillarni (fransuz va ingliz kabi) o'qitishda ham qo'llanishiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

- o'sha davr gimnazial ta'limida o'quvchilarning aqliy saviyasini tarbiyalash asosiy maqsadlardan sanalib, bunda matematika va chet tillar bilan mashg'ul bo'lish muhim sanalgan. O'quvchilar o'z aql-idroklarini til tizimi va mantig'i orqali mashq qilishlari zarur bo'lgan. Bu borada adabiy til namunalari ("Mumtoz adabiyot") maqsadga eltuvchi vosita sanalgan;
- gimnaziyada ta'lim olayotgan o'quvchilarning til o'rganishlari ular uchun "imtiyoz" sifatida qaralgan va natijada ular kichik guruh sanalgan "ziyoli" qatlamga kira olgan;
- gimnaziyalarda taklif qilinayotgan yangi (asosan fransuz va ingliz) tillar "qadimgi" (lotin va grek) tillarga "raqobatchi" bo'lishi talab etilgan va shu sababdan qadimgi tillarni o'rganishda urf bo'lgan GTMdan foydalanishdan o'zga chora bo'lmagan.

GTMning "klassik" konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchilar guruhi bir til vakillari bo'lishi va ularning yoshi hamda bilim darajasi bir xil, shuningdek, ular juda "bilimli" bo'lishi kerak edi. Bu holatni gimnaziya ta'limida ham kuza-tish mumkin bo'lgan.

GTMda darsning borishi an'anaviy ketma-ketlikda bo'lgan: dars grammatik mavzuni tushuntirish bilan boshlanib, so'ngra shu grammatik qoidaga asosan gaplar tuzilgach, matn o'qilishi yoki tarjimalar qilinishi va matnlar yozilishi urf bo'lgan (1-rasm). Dars jarayonida asosan grammatikaga oid mashqlar, ona tilidan nemis tiliga yoki aksincha matnlarni tarjima qilish, erkin insho yozish, matn mazmunini hikoya qilib berish, hikoya davomini yozish, diktant yozish ta'lim mazmuniga aylangan.



1-rasm: GTMda odatiy dars bosqichlari

GTM borasida tanqidiy qarashlar ko'plab olimlar tomonidan bayon etilgan. Jumladan, "bevosita metod" tarafdori V. Vietor GTMni zamonaviy, muomaladagi tilni (fransuz va ingliz) o'lik til vositalari va qoidalari yordamida o'qitilayotganligini, bu kabi qoidalar muomaladagi tilni o'qitishga umuman to'g'ri kelmasligini ochiq tanqid qiladi. Shuningdek, grammatika qotib qolgan qoidalarga bo'ysunmasligi, balki u ham jamiyatda bo'lgani kabi, ya'ni nima kecha dolzarb bo'lsa – bugun unutiladi, nima bugun to'g'ri bo'lsa – ertaga noto'g'ri bo'lishi ham mumkin degan qoidaga amal qiladi, deb ta'kidlagan [8].

XIX asrning so'nggi choragiga kelib GTMdan asta-sekin voz kechilgach, xorijiy til ta'limiga "bevosita metod" kirib kelgan. GTMdan farqli o'laroq, chet tilni o'qitish va o'rganishda ona til ishtiroki rad etilganligi sababli mazkur metod "bevosita metod" deb nomlanib, u sohaviy adabiyotlarda "anti-grammatika metodi", "isloh metodi", "rasional metod", "tabiiy metod", "konkret metod", "intuitiv metod" va "analitik metod" kabi nomlar bilan atali-shining guvohi bo'lamiz.

V. Vietorning fikriga ko'ra, yangi tillarni o'qitish jarayonida yozma nutq va grammatikadan qochish lozim, GTMning qotib qolgan, o'zgaras qoidalari esa doimiy rivojlanishda bo'lgan tillarni o'rgatish uchun yaramaydi [8]. Ushbu metodda asosiy e'tibor og'zaki nutqni o'qitishga qaratilishi sababli talaffuzni o'rgatish muhim sanaladi hamda fonetik bilim va fonetik yozuv (transkripsiya) dars jarayonida o'rganiladi. XIX asrning 90-yillarida bevo-sita metod o'quv rejalarga ham kiritilib, "yangi tillarni o'qitishdan maqsad barcha yuqori sinflarda o'zgartirildi,



jumladan, bunda asosiy e'tibor chet tilni og'zaki va yozma ravishda amalda qo'llashga qaratildi, grammatika esa faqat maqsadga erishish vositasi hisoblanadi". Bu o'z navbatida GTM va bevosita metodlarning ko'plab farqli jihatlari mavjudligini ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval: Grammatika-tarjima metod (GTM) va bevosita metod (BM)ning o'zaro farqli jihatlari (Sh. Gnusman).

Metod	Ta'lim maqsadi (darsda kutiladigan asosiy maqsad)	Ona tili (ishtiroki)
1. Kognitiv (GTM) tushunish, fahmiga yetish; Tanqidiy (BM-bevosita metod)	Yozma nutqni o'rganish, til haqida bilim berish; Og'zaki nutqni o'rgatish, nutq qo'nikmalarini o'zlashtirish	Ona tili materialni tushuntirish tili, chet tilni o'rgatish vositasi (GTM); Dars jarayonida Ona tilidan foydalanishdan voz kechiladi (BV)
2. Deduktiv (GTM), ya'ni qoidadan misolga; Induktiv (BM), ya'ni misoldan qoidaga	Ongli harakat, fahmiga yetish; "Ko'p o'ylamasdan" amalda qo'llash	Har qanday jarayon ona tili orqali (GTM); Ona tili xalaqit beruvchi unsur deb qaraladi (BM)
3. Ikki tilli (GTM); Bir tilli (BM)	Chet til ona tilida tushuntiriladigan formal sistema, shu sistema haqida ma'lumot berish; Chet til muomila vositasi, uni ona tilisiz muomila vositasi sifatida o'rganish	Ona tili taqdimot vositasi; Ona tili rad etiladi

Tadqiqotimiz tahlillari shuni ko'rsatadiki, bevosita metod asosida audiolingval metod (ALM) va o'z navbatida, uning asosida audiovizual metod (AVM) kelib chiqqan. ALM atamasi so'zma-so'z tarjima qilinsa, "tinglab-gapirish metodi", ya'ni tilni tinglab-gapirish yo'li bilan o'rganish ma'nosini anglatadi. Diaxronik aspektida tadqiq etilsa, "ALM 1-jahon urushidan so'ng yuqori sinflarda zamonaviy tillarni o'qitish maqsadida o'quv rejaga kiritilib, amaliyotda Berlits metodi deb nomlanuvchi metoddan foydalanilgan". Zamonaviy tillar xalqaro aloqa vositasiga aylana boshladi va o'quvchi dars jarayonida chet tilni doimo qo'llashi tufayli hamda o'quvchiga taqlid qilish yo'li bilan o'zida tilni his qilish qobiliyatini tarbiyalab borgan, shuningdek, chet til qonuniyatlarini asta-sekin induktiv yo'li bilan "kashf qilgan". Shu tarzda AQShda ALM vujudga kelishida ijtimoiy sabablarning o'zni katta bo'lgan: 2-jahon urushi tugagandan so'ng chet tillarni, ayniqsa, yapon va xitoy kabi tillarni biladigan muta-xassislar yetishmasligi, intensiv kurslar va tinglash asosida tashkil qilingan chet til kurslari orqali harbiy tarji-monlarni tayyorlash amaliyotining samaradorligi va uzoq vaqt talab etmasligi, xalqaro savdo-sotiqning kenga-yishi, turizmning jadal rivojlanishi, ilmiy va madaniy aloqalarning kuchayishi va shu kabilar Amerikada yangi metod – ALMning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Metodika tarixi yoritilgan adabiyotlarga ko'ra, audiolingval metodning rivojlanishi navbatdagi metod – audiovizual metod (AVM)ning vujudga kelishiga olib keldi. Tilni imkoni boricha ko'proq optik ko'rgazmalilik bilan bog'lashni maqsad qiladigan AVM Fransiyada shakllangan bo'lib, audiovizual kurs deganda xorijiy til ta'limining boshlang'ich bosqichida qo'llaniladigan Peter Guberina tomonidan asos solingan usullar nazarda tutiladi hamda bu dastlab fransuz tili kursi shaklida Voix et Images de France nomi ostida amaliyotga tatbiq qilingan. P. Guberinaning o'zi ushbu kursni "audio-vizual, global-struktural metod" deb atagan.

Mazkur metodning ALMdan farqli tomoni shundaki, o'quvchiga avval nutq vaziyati haqida vizual vositalar orqali ma'lumot taqdim etiladi va so'ngra shu vaziyatga oid ifoda shakllari beriladi. Demak, dars jarayonida yangi mavzu material taqdimoti o'zgacha: avval til hodisasining shakli (tinglash-takrorlash) va undan keyin uning mazmuni tushuntiriladi. Shuningdek, rasmlar va rasmlar qatoridan til material taqdimoti jarayonida faqat ma'noni o'zlashtirish maqsadida emas, balki til materialini mashq qilish va amalda qo'llash jarayonida ham unumli foydalaniladi. "Ilmiy asoslangan va universal xarakterga ega bo'lgan ta'lim metodi nihoyat audiovizual metod bo'lib dunyoga keldi".

O'tgan asrning 50-yillarida GTM va ALMlar elementlari va prinsiplari birlashib, chet til ta'limi tarixiga Aralash metod (AM) bo'lib kirib kelgan. Bu davrga kelib nemis tilini chet til sifatida o'qitish alohida fan bo'lib shakllana borgan va bunda "Nemis tili chet elliklar uchun" nomli darslikning chop etilishi muhim rol o'ynadi.

Mazkur darslikning o'ziga xosligi shunda ediki, unda chet til ta'limidan ko'zlangan maqsad (og'zaki nutqni o'rgatish), o'quv guruhlarining xususiyatlari (ma'lum bilimga ega bo'lgan katta yoshdagi kishilar, guruhlar tarki-bining turli-tumanligi) va o'quv sharoiti (nemis tili tabiiy sharoiti) hisobga olingan holda darslar rejalashtiriladi va olib boriladi. Bundan tashqari, ushbu metodda mualliflar GTMning ta'lim uchun qimmatli tamoyillari bo'lmish grammatika va so'z boyligini sistemaga solib o'rganish, shu bilan birga ALMning dars tuzilishi va mashqlarni shakllantirish, taqdim etish borasidagi yutuqlarini ham saqlab qolishgan va darslikka kiritishgan.



Darslikda mavzular quyidagi ketma-ketlikda shakllantirilgan va shu asnoda dars mashg'uloti tashkil etilishi maqsad qilingan (2-rasm).



2-rasm: Aralash metod asosida shakllantirilgan darslarning tuzilishi

O'tgan asrning 50-yillarida chet tillarni faqat gimnaziya o'quvchilari o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishib, bu o'ziga xos bir imtiyoz sifatida qaralgan. Ular umumiy o'quvchilarning 5–10 %nigina tashkil etgan. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan ingliz tili barcha o'quvchilar o'rganishi uchun o'quv predmeti sifatida kiritilishi bu holatning butunlay o'zgarishiga sabab bo'ldi. Maktab o'quvchilari bilan birga xalq oliy o'quv yurtlarida katta yoshlilar ham chet tillarni o'rganishni boshlashi mavjud metodlar, o'qitish usullarini o'zgartirish zaruratini uyg'otdi.

Bu davrga kelib xorijiy til ta'limidan ko'zlangan maqsad pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanilib, tilni tilga oid shakl tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi (muomala – til orqali biror faoliyatni bajarish) deb talqin qilinganligini guvohi bo'lamiz. Shuningdek, "ALM va AVM uchun muhim nazariy asos bo'lgan bixevioristik ta'lim nazariyasi ham tanqidga uchradi hamda chet tillarni o'rganish bu 'xulqni programmalashtirish' emas, balki bu ongli (kognitiv) va amaliy (kreativ) jarayon hisoblanadi". Shu tarzda 70-yillarga kelib chet til ta'limida "muomala qilishni o'rgatish" bosh maqsadga aylanishi, o'z navbatida, yangi "kommunikativ metod"ning paydo bo'lishiga olib keldi.

Xorijiy tillar ta'limi tarixiga oid manbalarga ko'ra, o'tgan asrning 70-yillari boshida kommunikativ metodning ikkita yangi – pragmatik va pedagogik yo'nalishlari rivojlandi.

Pragmatik yo'nalishda suhbatdoshiga o'z fikrini yetkaza olish, tili o'rganilayotgan mamlakatda qiyinchiliklarsiz "yo'l"ni topib yura olish, kishilar bilan muloqotga kirisha olish, OAV va matbuot materialini tushuna olish maqsadlarida chet til o'qitila yoki o'rganila boshlagan. Boshqacha aytganda, xorijiy tillar "kundalik hayot, kundalik muloqot" uchun o'rganilgan va bu muayyan me'yorlar orqali "o'lchandi", ya'ni imtihon qilina boshlandi. Shu tarzda 1972-yilda Gyote instituti va katta yoshlilarga nemis tilini o'qitish muassasasi – Xalq oliy o'quv yurtlari kengashi hamkorligida til bilimlarini baholovchi imtihon va uni ifodalovchi sertifikat ishlab chiqilgan. Natijada, xorijiy tilda nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qib tushunish va yozuv turlarida ko'nikmalar hosil qilish chet til ta'limi asosiy maqsadiga aylanishi, o'z navbatida, mavzu va matnlar tanlash jarayonida, til tizimi (grammatika)ga oid mashqlar tuzish va o'quv materiali taqsimoti sohasida ham o'zgarishlarni taqozo etdi.

Xorijiy til ta'limining pedagogik yo'nalishi pragmatik yo'nalishdan qator aspektlari bilan ajralib turadi. Jumladan, o'rta maktablarda xorijiy til ta'limi asosan ta'lim-tarbiya maqsadlari bilan chambarchas bog'liq deb qaraladi. Bundan tashqari, asosiy maqsad til va madaniy hayotga oid bilim berishdan iborat hisoblanib, bu "tarbiyaviy", "til o'rgatish", "ma'naviy" va "madaniy" maqsadlari bilan bog'langan edi. Jumladan, xorijiy til darslari ta'lim oluvchilarda fikrlash va e'tiborni ma'lum nuqtaga qarata olishni o'rgatishi, ko'p qirrali til shakllarini o'zlashtirib olishni ta'minlashi zarur sanalgan. Buning uchun o'quvchi ma'lum grammatik va stilistik tushunchalarni qoidalar asosida joylashtira olishni mashq qilishi talab etiladi.

Nemis tilli manbalar tahlilidan ayon bo'ladiki, ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan kommunikativ didaktika yo'nalishi, o'z navbatida, ikki bosqichda rivojlangan:

1. O'tgan asrning 70-yillar va 80-yillar boshida pragmatik-funksional konsepsiya.
2. 80-yillarning o'talaridan boshlab madaniyatlararo xorijiy til ta'limi konsepsiyasi.

Pragmatik-funksional konsepsiya Yevropa mamlakatlarida asosan katta yoshlilarga nemis tilini o'rgatishda qo'llanilgan. Ular chet tilni maktabdan tashqarida o'rganganliklari sababli ularning aniq kasbiy va shaxsiy imkoniyatlari o'zaro integratsiya qilingan va shunga asoslanib darslar tashkil etilib, nisbatan tez vaqt ichida xorijiy tilni kundalik mavzularda muloqot qila oladigan darajaga erishishni maqsad qilgan.

Tadqiqotimizda mazkur konsepsiyaning qator o'ziga xos xususiyatlari aniqlashtirildi. Jumladan, grammatik material taqdimoti, mavzular va leksika, pragmatik rol va vaziyatga asoslanish, o'quv materiali progressiyasi (taqdimoti, zichligi va ketma-ketligi), matn ustida pragmatik ish olib borish, yangi mashq shakllari va usullari va shu kabilarni pragmatik-funksional konsepsiyaning o'ziga xos xususiyatlariga kiritish mumkin.



Pragmatik-funksional didaktikaga asoslanib darslarni tashkil qilishda umumdidaktik va metodik tamoyil sifatida o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, darsning ijtimoiy shaklining o'zgarishi, o'qituvchining darsdagi rolining o'zgarishi va o'quv materialiga o'zgacha munosabat aniqlandi. Masalan, an'anaviy frontal dars (o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa faqat tinglashadi, faqat ayrim hollarda talab qilinsagina nimadir deyishlari kutiladi) shakli yakka-yakka yoki juft bo'lib va guruhlarda hamkorlikda ishlash shakllari bilan diversifikatsiya qilinadi. Qaysi shaklning qo'llanishi dars maqsadlariga bog'liq bo'ladi. Yoki o'qituvchi "bilim beruvchi" yoki texnik vositalarni boshqaruvchisi emas, balki "ta'lim jarayonining yordamchisi" bo'ladi. Shu asnoda qator darsliklar "Nemis tilini chet til sifatida" o'rganuvchilar e'tiboriga havola etilishi natijasida mazkur konsepsiyaning qator "kamchilik"lari ochilishiga sabab bo'ldi hamda natijada madaniyatlararo xorijiy til ta'limi konsepsiyasi vujudga keldi. Chunki mazkur konsepsiya pragmatik-funksional konsepsiyaga nisbatan ta'lim oluvchilar imkoniyatlarini aniq tahlil qilish borasida ilmiy-pedagogik xulosalarga jiddiy e'tibor bilan yondashadi. Shuningdek, u tili o'rganilayotgan mamlakatlarda nisbatan geografik va madaniy masofa hamda o'zgacha ijtimoiy munosabatlar mavjud bo'lgan joylarda, masalan, nemis tili xorijiy til sifatida o'qitiladigan Yevropa davlatlari, xususan, Osiyo mamlakatlarida xorijiy til ta'limini tashkil qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Madaniy-individual hayot tajribalari va ta'limiy hodisalar, dunyoqarashlar, ta'lim an'analari va odatlari, o'z va o'zga madaniyat o'rtasidagi munosabat (madaniy aloqa: ijtimoiy, madaniy va lisoniy imkoniyatlar qiyosi), individual itilish, ta'limiy harakatlar va tashkiliy shart-sharoitlar (tillarni o'rganish mohiyati; vaqt taqsimoti, chet tilning maktab ta'limidagi o'rni; chet til ta'limining boshqa fanlar qatoridagi mavqeyi), ta'limning yordamchi vositalari mavjudligi (darslik va texnik vositalar) kabilar mazkur konsepsiyaning tadqiqot predmetlari sanaladi.


Xorijiy tillar ta'limida qandaydir begona dunyo bilan bevosita emas, balki ta'limning yordamchi vositalari orqali (o'qish, tinglash, o'qish–tinglash matnlari: televidenie va video) tanishilgani va xorijiy tilni qo'llash imkoniyati juda kam hollarda kundalik muloqot jarayonida mavjudligi sababli ham ta'lim jarayonida idrok va tushunish xorijiy til o'rganishning asosini tashkil etadi. Demak, xorijiy til ta'limining mazmuni va mavzular tanlanishi juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi, idrok uchun texnika vositalari asosidagi ta'lim rivojlantirilishi va idrok tadqiqotlari natijalariga asosiy e'tiborni qaratish talab etiladi.

Madaniyatlararo konsepsiya hududiy darsliklar orqali muntazam takomillashib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Ularda xorijiy til ta'limining madaniy va hududiy muammolari nemisizabon mamlakatlarda yaratilayotgan darsliklardagiga qaraganda butunlay o'zgacha tarzda hal qilinmoqda.

Yuqorida chet til ta'limi metodikasi tarixi haqida tilga olingan fikrlarni umumlashtirib, shunday xulosalarga kelish mumkin:

- xorijiy til ta'limining yangi metodlari davrdan-davrga "ko'chib o'tish prinsipi"ga ko'ra rivojlanmasdan, balki bir davrning o'zida bir necha metodning mavjudligi ham kuzatiladi;
- xorijiy til ta'limi amaliyoti uchun bir-biridan farq qiluvchi ta'lim metodlarining yonma-yon qo'llanishi (masalan, alohida olingan o'quv guruhlari uchun) va turli konsepsiyalarga oid metodik prinsiplarning qorishtirilishi xarakterlidir;
- xorijiy til ta'limi tarixida ma'lum bir davr uchun "yaxshi" dars tashkil qilishning asosiy metodlari mavjud bo'lgan.

Ta'lim metodlarining XX asrdagi tarixiy rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda quyidagi tartibda joylashtirish mumkin bo'ladi (3-rasm).



3-rasm: Chet tili o'qitish metodikasi tarixiy bosqichlari



Ta'lim maqsadlari va dars berish usullarining o'zaro uzviy bog'liqligi chet til ta'limining turli metodik konsepsiyalari tahlili misolida ko'rsatib o'tildi. Bunday bog'liqlik ta'lim nazorati va metodlari o'rtasida ham mavjudligi o'z-o'zidan tushunarli. Shuning uchun nima o'rgatilsa, o'sha sinab ko'rilishi, qanday o'rganilsa, shunday tekshirilishi zarur. Boshqacha so'z bilan aytganda, har qanday metodga xos o'qitish usullari, tamoyillari va mashq shakllari xuddi shunday nazorat usullari, tamoyillari va mashq shakllarida o'z aksini topishi kerak. Bunday dasturiy bog'liqlik holatlari har bir o'quv guruhi uchun xorijiy til ta'limining maxsus konsepsiyasini loyihalashda e'tibordan chetda qolmaslik lozim.

XULOSA VA TAKLIFALR

Xulosa o'rnida yana shularni qayd etish mumkinki, xorijiy til ta'limi metodlarining rivojlanishi umumiy hamda o'quv predmetiga oid maxsus shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq. Bu ta'lim maqsadlari, usullari (metod va vositalari) hamda bilim, malaka va ko'nikmalar nazoratini rejalashtirish va tashkil qilishda hamohanglik bo'lishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Guberina P. Verbotonal method and its application to the rehabilitation of the deaf. International Congress on Education of the Deaf: 279–293. US Government Printing Office, Washington D.C., 1963.
2. Hoshimov O'., Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – T.: Sharq, 2003. – 302 b.
3. Jalolov J. Methods of Teaching English. Tashkent: Teacher, 2007. – P. 71–85.
4. Jalolov J.J. Interference in the methodology of teaching a non-native language. O'zbekistonda xorijiy tillar // ilmiy-metodik elektron jurnal. 2017–5.
5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 434 b.
6. Peterssen W.H. Kleines Methoden-Lexikon. – München: Oldenbourg, 1999. – R. 50.
7. Real W. Methodische Konzeptionen von Englischunterricht. – Paderborn: Schöningh, 1984. – S. 33–34.
8. Vietor W. Der Sprachunterricht muß umkehren! Ein Beitrag zur Überbürdungsfrage. Gebr. Henninger, 1882. – S. 12.
9. O'rta maktabda chet tillar o'qitish metodikasi kursi bo'yicha pedagogika institutlari programmasi / Mas'ul muharrir J.J. Jalolov. – T.: Maorif vazirligi, 1977. – 29 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.